

**Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti
Farg‘ona filiali**

**“MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI”
MODULI**

**1-MAVZU. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ME’YORIY-HUQUQIY
HUJJATLARI. FAVQULODDA VAZIYATLARNING TURLARI VA ULARNING TASNIFI**

O‘qituvchi: *Mirzakarimov Xudoberdi Yusupovich*

1-mavzu. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy hujjatlari. Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularning tasnifi

Reja:

1. Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi va mazmuni.

2. Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari.

3. Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularning tasnifi. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va himoyalash usullari.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI



I. Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi va mazmuni.

Hayot - Odam yashashi va namoyon bo'lishining eng murakkab shakllaridan biri. Bu tushunchada: - "odam" fiziologik harakterga ega bo'lib qolgan. Vaholanki odamlarning xalqaro huquqlari "inson"ga tegishlidir. U inson ruhiyati, ongi, tafakkuri bilan uzviy bog'langan. Insonlarning qadr qimmatini aynan shu hayotni qanday o'tkazganligi bilan o'lchanadi.

Insonlar hayoti nafaqat kishilik jamiyatiga, balki atrof tabiatga ham bog'liqdir;


Hayot tushunchasi nafaqat ijtimoiy, balki tabiiy xarakterga ham ega. Zero hayotni nafaqat inson, balki barcha mavjudot (organizmlar) ham kechiradilar. Ular ham o'z hayotlarida muayyan faoliyat olib boradilar.





Faoliyat - organizmlarning, jumladan insonlarning turli shakl va ko‘rinishda harakat qilishlari. Shuning uchun ham faoliyat so‘zini ishlatayotganda “Inson faoliyati”, “Hayvonot dunyosi faoliyati”, “o‘simlik dunyosi faoliyati” deyish maqsadga muvofiqdir. Inson faoliyati esa boshqa organizmlarga nisbatan juda murakkabligi, bir paytning o‘zida uni tartibga solish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi. Murakkabligi shundaki u siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-sotsial, ma’rifiy-ma’naviy, va hattoki ekologik harakterdagi faoliyat turlari bilan boshqa organizmlardan tubdan ajralib turadi. Shuning uchun ham faoliyat so‘zini egasi bilan qo‘llash, ya’ni “Inson mehnat faoliyati”, “Inson ekologik faoliyati”, “Inson siyosiy faoliyati” kabi qo‘shimchalar bilan ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Xavfsizlik:



- alohida shaxs, jamiyat va tabiat ob'ektlarini kuchli darajadagi xavf-xatardan himoyalanganlik darajasi bo'lib, uning asosiy mezonlari kelajakda yoki hozirda sodir bo'luvchi tabiiy yoki ijtimoiy xatardan kelib chiquvchi qo'rquv hissi (L. Yu. Xotunsev, 2002);



- keng ma'noda hayot, salomatlik, insoniyatning asosiy huquqlari, hayotiy manfaatlarini ta'minlovchi manbalar, ijtimoiy tartibdagi resurslar bilan bog'liq xavflarga chidamlilik darajasi (K. Ya. Kondrat'ev, 1993; T. Aroshidze, 1994);



- zamonaviy, o'zaro tartibli fan yo'nalishi bo'lib, insoniyat, jamiyat, davlatni hayotiy zarur manfaatlarini texnogen va tabiiy favqulodda xolatlardan himoyalanganlik darajasi (V. N. Burkov, A. V. Shepkin, 2003);



- organizmlar, jumladan insonlarning turli shakl va ko'rinishdagi jamoasining atrof-muhitining turli ko'lamda sodir bo'luvchi va tavakkalchilikni inobatga oluvchi xavf-xatardan himoyalanganlik darajasi (Nigmatov, Matchanov, 2005);



Xavflar, ularning tasnifi.

Belgilar klassifikatsiyasi	Ko‘rinishlar (sinflar)
Xavfli manbalarining ko‘rinishi bo‘yicha	Tabiiy, antropogen, texnogen
Hayot fazosidagi oqimlar ko‘rinishi bo‘yicha	Energetik, ko‘psonli, informatsion
Hayot fazosidagi oqimlar ruxsat etiladigan o‘lchami bo‘yicha	Ruxsat etilgan, chegarali, xavfli, o‘ta xavfli
Xavflarni sodir bo‘lish vaqti bo‘yicha	Oldindan bilish mumkin bo‘lgan, to‘satdan sodir bo‘ladigan
Xavflarni ta’siri davomiyligi bo‘yicha	Doimiy, o‘zgaruvchan, davriy, qisqa muddatli
Zararli ta’sir etadigan ob’ektlari bo‘yicha	Insonga ta’sir etuvchi, tabiiy muhitga ta’sir etuvchi, moddiy boyliklarga ta’sir etuvchi, kompleks ta’sir etuvchi
Xavfli ta’sirga uchragan odamlarning soni bo‘yicha	Shaxsiy, guruhli (jamoaviy), ko‘psonli
Ta’sir etish zonasining o‘lchami bo‘yicha	Lokal, hududiy, hududlararo, global
Ta’sir etgan zonalar ko‘rinishi bo‘yicha	Xonada ta’sir etuvchi, hududlarda ta’sir etuvchi
Insonlarning sezgi organlarini xavflarni farqlay olish qobiliyati bo‘yicha	Seziladigan, sezilmaydigan
Insonga zararli ta’sirini ko‘rinishi bo‘yicha	Zararli, jarohatlashga xavfli
Insonga va atrof-muhitga ta’siri etish ehtimoli bo‘yicha	Potensial, real, amalga oshgan

II. Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Mamlakatda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi va xalq xo'jaligining turli ob'ektlarini muhofaza qilish sohasida 30 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari ishlab chiqilgan bo'lib ularning eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 23 dekabrda qabul qilingan 558-sonli "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (favqulodda vaziyatlarDT) to'g'risida"gi qarori, 1999 yil 20 avgustda "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi, 2016 yil 22 sentyabrda "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, 1996 yil 29 avgustda "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi, 2000 yil 26 mayda "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi hamda 2000 yilning 15 dekabridagi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 11 aprelida qabul qilingan 143-sonli "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori va bu qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risidagi Nizom", O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuni, 2006 yil 26 sentyabrdagi "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlardir.

Ushbu islohotlarning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi PF-1378 Farmoniga asosan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi.

III. Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularning tasnifi. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va himoyalash usullari.

Favqulodda vaziyatlar - odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y-harakatlari majmui.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini saqlab qolish va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlar hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan joylarning kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi tushuniladi



Favqulodda vaziyatlar kelib chiqish sababi va manbaiga ko‘ra, tezligiga ko‘ra va miqyosiga ko‘ra tasniflanadi.

Favqulodda vaziyatlar kelib chiqish sababi va manbaiga ko‘ra:

- Tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlar;
- Texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar;
- Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar;
- Ijtimoiy - siyosiy: terrorizmdan keyingi favqulodda vaziyatlar;
- Harbiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlarlarga bo‘linadi.

Tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlarga 3 turdagi xavfli hodisalar kiradi:

a) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, yer ko‘chishlari, tog‘ o‘pirilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar;

b) gidrometeorologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko‘chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar;

s) favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar.

Epidemiya — odamlarning guruh bo‘lib yuqumli kasallik bilan kasallanishi, ularning zaharlanishi (oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish);

epizootiya — hayvonlarning ommaviy yuqumli kasalligi va nobud bo‘lishi;

epifitotiya esa o‘simliklarning ommaviy yuqumli kasallik bilan kasallanishi va nobud bo‘lishidir.



2. Texnologiya tizimlaridagi favqulodda vaziyatlarga 8 turdagi favqulodda vaziyatlar kiradi:

a) *Transportlardagi avariya va halokatlardan.*

b) *Kimyoviy xavfli ob'ektlardagi avariya.*

s) *Yong'in — portlash xavfi mavjud bo'lgan obyektlardagi avariya.*


d) *Energetika va kommunal tizimlardagi avariya.*

e) *Bino va inshootlarning birdan qulab tushishi bilan bog'liq avariya.*

f) *Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish, yoki ularni saqlash bilan bog'liq avariya.*

g) *Gidrotexnika inshootlardagi halokatlardan va avariya.*

h) *Magistral gaz - neft quvurlaridagi, neft va gaz burg'ulash paytidagi avariya. maydonlardagi, kon kavlashdagi avariya.*



3. Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarlar asosan 3 xil bo'ladi:

a) Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

- halokatli ko'chkilar - foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida yer yuzasining o'pirilishi, siljishi;
- sanoat chiqindilari, pestitsidlar va boshqa zaharli kimyoviy moddalar bilan tuproqning ifloslanishi.

b) Atmosfera (havo muhiti) tarkibi yer xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar:

Atmosferaning quyidagi ingradientlar bilan yuqori ifloslanishi:

- oltingugurtli oksid, azotli oksid, uglerodli oksid, dioksid, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsentrasiyalarda antropogen tUSDagi boshqa zararli moddalar;
- keng ko'lamda kislotali hududlar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi;
- radiatsiyaning yuqori darajasi.

v) Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

- yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqavalari, chiqindilari bilan ifloslanishi;
- neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan, tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar mavjud chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan yuqori darajada ifloslanishi;
- binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy – joylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, yoki olib kelgan sizot suvlar miqdorining ortishi;
- suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin yetishmasligi.

**Favqulodda vaziyatlar xavfning
tarqalish tezligiga ko'ra, quyidagi
guruhlarga bo'linadi:**

Tasodifiy favqulodda vaziyatlar — yer silkinishi, portlash, transport vositalardagi avariylar va boshqalar;

Shiddatli favqulodda vaziyatlar — yong'inlar, zaharli gazlar otilib chiquvchi portlashlar va boshqalar;

Mo'tadil (o'rtacha) favqulodda vaziyatlar — suv toshqinlari, vulqonlarning otilib chiqishi, radioaktiv moddalar oqib chiquvchi avariylar va boshqalar;

Ravon favqulodda vaziyatlar - sekin-asta tarqaluvchi xavflar: qurg'ochilik, epidemiyalarning tarqalishi, tuproqning ifloslanishi, suvni kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi va boshqalar.



Favqulodda vaziyatlar tarqalish miqyosiga (shikastlanganlar soniga hamda moddiy yo‘qotishlar miqdoriga qarab) ko‘ra 4 guruhga bo‘linadi:

Lokal (ob‘yekt miqyosidagi) favqulodda vaziyatlar;

Mahalliy favqulodda vaziyatlar;

Respublika (milliy) favqulodda vaziyatlar;

Transchegaraviy (global).



1. Lokal favqulodda vaziyat - biror ob'jektga taluqli bo'lib, uning miqyosi o'sha ob'ekt hududi bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida yuzdan ortiq bo'lmagan odam jabrlangan yoki, yuzdan ortiq bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyatlar paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo'lmagan miqdorni tashkil etgan bo'lsa. Bunday favqulodda vaziyatlar oqibatlari shu ob'ekt FMning kuchi va resurslari bilan tugatiladi.


2. Mahalliy favqulodda vaziyat — aholi yashaydigan hudud (aholi punkti, shahar, tuman, viloyat) bilan chegaralanadi. Bunday vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan kam bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyatlar paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqqi miqdorining 1 ming baravardan ortiqni, biroq 0,5 million baravardan ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etgan bo'lsa.

3. Respublika miqyosidagi favqulodda vaziyat deyilganda — favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyatlar paydo bo'lgan kunda eng kam oylik ish haqqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortig'ini tashkil etadigan, hamda favqulodda vaziyatlar mintaqasi viloyat chegarasidan tashqariga chiqadigan, respublika miqyosida tarqalishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar tushuniladi.

4. Transchegaraviy (global) favqulodda vaziyatlar deyilganda esa, oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan yoxud favqulodda vaziyatlar chet elda yuz bergan va O'zbekiston hududiga daxldor holat tushuniladi.

Favqulodda vaziyatlarning tavsifi. Har qanday favqulodda vaziyatlar 8 ta ko'rsatkich bo'yicha aniqlanadi:

- Favqulodda vaziyatning nomlanishi (favqulodda vaziyatlar ning ta'rifi);
- favqulodda vaziyatlarning mohiyati (mazmuni);
- favqulodda vaziyatlarnin sabablari;
- favqulodda vaziyatlarning shikastlovchi omillari;
- favqulodda vaziyatlarda qaltislikni oshiruvchi omillar;
- favqulodda vaziyatlarni oldindan bilish mumkinligi (monitoring, bashorat, ogohlantirish, yumshatish);
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish (falokatdan qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni bajarish);
- Moddiy zararni aniqlash (bevosita va bilvosita).



**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT !**